

**“TARKIBADAXSHON” DOSTONINING TILI HAQIDA****Dilshod Hamroyev, Qarshi DU o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Chori baxshi Umirov repertuaridan yozib olingan “Tarkibadaxshon” dostonining til xususiyati, doston matnida qo‘llangan sheva so‘zlarining baxshi tomonidan mahorat bilan qo‘llanilishi ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Folklor asarlari – jonli so‘zlashuv tili, shu bilan birga arxaik ifodalar va dealektizmlar ular uchun norma sanaladi. Bu xususiyati bilan folklor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Folklor tili – muttasil harakatdagi jonli so‘zlashuv tili bo‘lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbayi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi[Caфapov O,1.13]. Folklor asarlari tili dialektizm va xalqona paremlar bilan boyligi bilan ajralib turadi.

Folklor asarlar tilida dialektizmlar salmoqli o‘rin ega. Bunga sabab o‘zbek tili boshqa turkiy tillardan o‘zining shevalarga boyligi bilan ajralib turadi. Agar qozoq, qirg‘iz tili faqat qipchoq, turkman, ozar, turk tili, asosan, o‘g‘uz shevasidan tashkil topgan bo‘lsa, o‘zbek tili esa har uch shevani o‘z ichiga oladi. Dialektizmlar – umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo‘lib ular, asosan, jonli so‘zlashuvda uchraydi, biroq folklor asarlarda dialektizmlardan personajlar nutqini mahalliy koloritga mos tarzda tasvirlash hamda badiiy ta’sirchanlikni oshirish uchun foydalanadilar. Tilshunoslikka oid ko‘pgina tadqiqotlarda dialektga oid so‘z va ifodalar umumxalq nutqining bir ko‘rinishi sifatida e’tirof etilsa-da, ularning adabiy til me’yorlariga mos kelmasligi tufayli adabiy nutqda chegaralanishi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi[Fayzullayev B, 2.203]. Shevalar mahalliy nutq koloritini ma’lum bir hududga mos tarzda ifodalash, personalar nutqini individuallashtirish, tipiklashtirish maqsadida badiiy asar tilida qo‘llaniladi. Zero, dialektal so‘z va vositalardan foydalanish badiiy asar tilining jonli xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa dostonlarda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Ulardan o‘rinli foydalanish orqali folklor asarlar tilining boyishi, uning xalq jonli tiliga yaqin va rang-barang bo‘lishini ta’minlaydi. Folklor asarlarda, ayniqsa dostonlarda adabiy so‘zlarni sheva xos qisqartma variantlarini qaysi uslubda ishlatilishiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin: a) badiiy nutq qisqartmalari; b) so‘zlashuv nutq qisqartmalari.

Bu kabi uslubiy vositalarni “Tarkibadaxshon” dostoni misolida kuzatadigan bo‘lsak, birinchi guruh qisqartmalari badiiy nutq natijasida qisqarganligi sezilib

turadi. Ular umumiste'mol nutqda ishlatilmaydi. *abad, albat, bormam, gar, qay* va boshqalar qisqartmalar kitobiyligi bilan ajralib turadi va dostonida uchramaydi. Ammo so'zlashuv nutqiga xos *Qilib // qip// bo'b// bo'p// tirik// tiri//* tipidagi qisqartmalarni esa xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish "Tarkibadaxshon"da uchratish mumkin.

Buqaday **qib** arab otim suribman,  
Nima bo'lsa, taqdir Haqdan ko'ribman,  
Sizlar bilan bitta bog'da yuribman,  
Kun chiqardan tuqqan oyni ko'rdim-da,  
Kun botardan yana bir oy ko'ribman.

Bulbul iskab sayrar bog'ning gulini,  
Xotinli **qib** Chambil elning ulini. 35

"...Mana Go'ro'g'li sulton parilardan bu so'zni eshitib, burga kirganday qashinib, yo'lbarsday **bo'b** shishinib, och bo'riday ochinib, parilarga qarab..."

Bugun ko'rib turibsanku **tirimdi**,  
O'tkazdim-da dushmanimga zo'rimdi,  
Ko'rar bo'ldim men ertaga borimdi.  
Xafa bo'lib yig'lamagin otajon,  
Avaz qaysar olib berdi orimdi.

Shuningdek, "Tarkibadaxshon" dostonida so'zlashuv nutq qisqartmalaridan so'z yoki grammatik shakllarning qisqargan shaklidan foydalanilgan. Bu vazn talabi, ohangdorlik yoki tasviriylikni oshirgan. Shu bilan birga shevaga xos birliklarning ko'rishi sifatida voqealangan. Masalan, jo'nalish kelishigining **-a** qisqargan shakli, tushum kelishigining **-di, -n** kabi qisqargan shakllaridan foydalanilgan:

Kim chidaydi ko'zdan oqqan yoshima,  
Qarg'a-quzg'un egamikan loshima,  
Ikkovingni bosib oldim jo'shima.  
Kun botardan chiqqan ul oy, parilar,  
Soya berib keldi mening boshima.

Tushni ko'rib kelolmaysan hushima,  
Hayron bo'ldim endi ko'rgan tushima,  
Chivin tushdi jiyar bo'lgan oshima.  
Shu tushimni jo'rab bergin, parilar,  
Qanday siri-savdo tushar boshima?

*Yoki*

Bilmay qoldim baland bilan pastim**di**,  
 Aytar bo‘lsam, otajonim, rostim**di**,  
 Dushmanimdan oldim men ham qastim**di**.  
 Xafa bo‘lib yig‘lamagin, otajon,  
 Yetkazdi-da, xudo Avaz do‘stim**di**.

Dushman bo‘lsa zo‘rligini o‘tkazdi,  
 Yarador qib toza sillam ketkazdi,  
 Lashkarimdi qirib ishin bitkazdi.  
 Xudoyimdan aylanayin, otajon,  
 Chambil eldan Avazxonni yetkazdi.

“Tarkibadaxshon” dostonini kuylagan Chori baxshi Umirov ijodining o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan jihatlardan yana biri shundan iboratki, u o‘zi kuylayotgan doston g‘oyasi va tasvirlanayotgan voqealar mohiyatiga xos xalq pandnomalari, asrlar sinovidan o‘tgan maqol va matallar, ibrat bo‘larli o‘gitlardan samarali foydalanadi. Doston tili esa nihoyatda yengil va ravon. Unda rang-barang badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgan, ayniqsa, hikmatli so‘zlar darajasiga ko‘tarilgan ayrim barqaror birikmalar hech kimni e‘tiborsiz qoldirmaydi: *“Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”*, *“Tog‘ni ursa talqon qiladi”*, *“Ko‘pning duosi ko‘l deydi, ichida xosiyat mo‘l deydi”*, *“Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada”*, *“Yaxshi niyat bilan kelgan bo‘lsa oshini yeydi, yomon niyat bilan kelgan bo‘lsa boshini yeydi”*, *“Enkayganga enkay, burning yerga tekkuncha, qaqqayganga qaqqay boshing ko‘kka yetguncha”*, *“Yalang‘och suvdan qaytmas, o‘ladigan ho‘kiz boltadan qaytmas”*, *“Tekinxo‘r tomog‘idan ilinadi, mug‘ombir tirnog‘idan ilinadi”*, *“Tinmasang, tinarsan”*, *“Qush kelsa qanoti kuyadi, odam yursa oyog‘i kuyadi* va hokazo. Dostonda so‘zlashuv uslubda ko‘plab uchratish mumkin bo‘lgan “patini yuladi” xalqona ibora o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan:

Gulruxsor derdi uning otini,  
 Suluvlikda boylar yerning betini,  
 Oqdevshoh o‘tkazib siyosatini.  
 Borganlarning *julib berar patini*,  
 Inson suyagidan yoqqan o‘tini.

Bundan tashqari dostonda *“Tulkini ko‘rgan toziday”*, *“Sutga to‘yganlar qo‘ziday”*, *“Pishqirib chopgan ilonday”*, *“toza ahmoqsan”*, *“uzayin kallangni sabchaday”*, *“ipidan ignasigacha”* kabi xalqona paremlar doston badiiyatini oshirgan.

Xullas, Chori baxshi Umirovning epik repertuarida qayd etilgan “Tarkibaxshon” dostoni folklor va yozma adabiyot munosabatlaridagi aks jarayon, ya’ni bevosita xalq og‘zaki badiiy ijodi an’analari asosida yaratilgan adabiy asarlar ta’sirida baxshilar epik repertuarining boyib borishi natijasida yuzaga kelgan ajoyib dostondir. Hajman ancha katta bo‘lgan bu dostonda baxshining badihago‘ylik san’ati yaqqol namoyon bo‘lib turishi she’riy parchalarning o‘ziga xosligi va epik talqinning originalligini ta’minlagan. An’anaviy motivlar tarkibining o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi bu dostonda muhabbat va sadoqat, do‘stlik va vafodorlik, yurtsevarlik va jasoratlilik kabi ezgu qarashlar tarannum etilgan. Mazkur doston xalqimiz badiiy salohiyatining ulkan qudrati tufayli yaratilgan qadriabad epik asarlarni yuksak mahorat bilan kuylagan atoqli baxshi Chori baxshi Umirov ijodiy zakovati naqadar keng qamrovli va rang-barang bo‘lganligiga yorqin dalil bo‘la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Fayzullayev B. Badiiy adabiyotda dialektizmlarning stilistik vazifalari. Tilshunoslik masalalari. - T., 1978. – B.203-212
2. Safarov O., O‘rayeva D., Qurbonova M. O‘zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. - Toshkent-2007. – B.13